


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60813100-Yer kadastri va yer tuzish
bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQILGAN:

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21»
08 dagi 367 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

1.	<i>60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish bakalavriat ta’lim yo’nalishining umumiy tavsifi</i>	4
1.1.	Qo’llanish sohasi.....	4
1.1.1.	<i>60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish ta’lim yo’nalishi Malaka talabining qo’llanilishi.....</i>	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....</i>	4
1.2.1.	<i>60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....</i>	4
1.2.2.	<i>60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari.....</i>	5
1.2.3.	<i>60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	5
1.2.4.	<i>60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....</i>	5
2.	<i>60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablar</i>	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo’yiladigan talablar.....	7
2.3.1.	<i>60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish ta’lim ta’lim yo’nalishi uchun ajratilgan o’quv fanlari, bloklar bo’yicha soatlar va kreditlar.....</i>	8
2.3.2.	<i>60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish ta’lim bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha ta’lim dasturining tuzilishi.....</i>	8
2.4.	Kvalifikatsiyalar.....	9
	Bibliografik ma’lumotlar.....	10
	Kelishuv varag’i.....	11
	Kelishuv dalolatnomasi.....	12

1. 60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.

Malaka talabi *60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish – xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida foydalaniladigan yer resurslari, ularning yer fondi toifalari bo'yicha taqsimlanishi, tegishli vazirlik va idoralar, shuningdek "Kadastr" agentligi infratuzilmasi va korxonalari, yer kadastrı va yer tuzish sohasi bo'yicha ilmiy loyihalash va tadqiqot muassasalari, yerdan foydalanish, yer egaliklari, yerdan foydalanishning huquqiy holati, miqdori va sifat tavsifi, ulardan foydalanish hamda holatini nazorat qilish va boshqarish; ko'chmas mulk ob'ektlari, shu jumladan shaharlar va aholi yashash punktlari chegarasidagi yer uchastkalari, ularning huquqiy holati, davlat ro'yxatiga olinishi, baholanishi, foydalanishini nazorat qilish; kadastr axborot tizimlari; loyiha - texnik va rejalashtirish hujjatlari kabi kasbiy faoliyatning vositalari, usul va uslublari yig'indisini o'z ichiga oladi.

1.2.2. 60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari:

- yerlarning miqdor va sifat hisobini yuritish;
- yer uchastkalariga bo’lgan huquqlarni davlat ro’yxatiga olish;
- tuproq bonitirovkasi va yerlarni iqtisodiy baholash (qiymatini aniqlash);
- yerdan foydalanish va muhofaza qilish ustidan davlat nazorati;
- yer kadastrı axborot tizimini yaratish va yuritish va undan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishda foydalanish;
- yerdan foydalanuvchilar va yer egaliklarini tashkil etish;
- yer ajratish, hududni tashkil qilish va kompleks rivojlantirish bilan bog’liq loyiha - texnik hujjatlarini tayyorlash jarayonlari.

Yo’nalish bo’yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob’ektlarida qo’shimcha va o’zgarishlar bo’lishi mumkin. Bo’lishi mumkin bo’lgan qo’shimcha va o’zgarishlar muayyan talim yo’nalishining malaka talablari va o’quv rejalarini ishlab chiqishda hisobga olinishi nazarda tutiladi.

60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavriyat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o’tgandan keyin, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o’qitish bo’yicha pedagogik faoliyati bilan shug’ullanish huquqiga ega bo’ladi. Bakalavriyatning kasb ta’limi yo’nalishlari bundan mustasno.

1.1.2. 60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining turlari.

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- loyiha-texnik va rejalashtirish faoliyati;
- texnologik-ishlab chiqarish faoliyati;
- ijtimoiy-iqtisodiy asoslash faoliyati.

1.2.4. 60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60813100 – Yer kadastrı va yer tuzish ta’lim yo’nalishi bo’yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq bakalavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo’lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- yer kadastrı, yer tuzish va yerdan foydalanish sohasida texnologiya va texnik vositalardan foydalanishning samaradorligi ko’rsatkichlarini hisoblash va baholash;
- ishlab chiqarishda hayot faoliyati havfsizligi bo’yicha mutaxassislariga qo’yiladigan talablarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo’lish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo’lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasiga, yong’inga, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish.

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda yer resurslaridan foydalanish, ularni baholash, muhofaza qilish bilan bog’liq tadbirlarda qatnashish;
- texnik-loyihaviy tadqiqotlarni o’tkazishda namunaviy metodikalar va texnik vositalar hamda qurilmalarni qo’llay olish:

- yer kadastrasi va yer tuzish sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar, xorijiy davlatlar va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi yutuqlarni o'rganish;
- ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish va ishlanmalarni ishlab chiqishda qatnashish;
- mavzu(topshiriq) bo'yicha ilmiy texnik ma'lumotlarni yig'ish, ularga ishlov berish, tahlil qilish va tizimlashtirishni amalga oshirish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tadbiq etishda qatnashish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va tahlil qilish;
- ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish.

Loyiha-texnik va rejalashtirish faoliyati:

- loyihalashtirish uslublarining zaif va ustun jihatlarini tahlil qila bilish;
- loyihalarning texnik asoslarini asoslash va ularni amalga oshirishning muhandislik asoslarini ishlab chiqish;
- loyiha-texnik faoliyati bilan rejalashtirish faoliyatini qo'shib olib borish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- loyihalarning texnik-iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini ishlab chiqish masalalarining aniq va tushunarli asoslarini yaratish.

Texnologik-ishlab chiqarish faoliyatida:

- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish qobiliyatiga ega bo'lish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayoni monitoringi va sifatini baholash uslublari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- kasbga oid muammolar yechimini amaliyotga tatbiq qilish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar turli xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

Ekspluatatsiya va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalanish;
- ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari, dasturiy ta'minotlar, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash.

2. 60813100 – Yer kadastrasi va yer tuzish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-xuquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tashkiliy tuzilmalarni maqbullashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- strategik va operatsion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;

- yer kadastrini va yer tuzish sohalarining talablarini qanoatlantiruvchi samarali hamda tejankor texnologiyalarni joriy etishni bilishi;

- yer kadastrini yuritishning ilmiy-uslubiy asoslar va texnologiyasi, ular to'g'risida umumiy tushuncha, uning mazmuni va vazifalari, yer kadastrini va yer tuzishning tarkibiy qismlari va bosqichlari haqida tasavvur hosil qilishi;

- yer kadastrini va yer tuzish tizimi, amaliyotda qo'llanib kelinayotgan yo'riqnomalar, me'yoriy hujjatlar va uslubiy ko'rsatmalardan foydalanish; yer egaliklari va yerdan foydalanishlar turlarini, ularni tashkiliy – iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini tanlash; yer resurslari haqidagi ma'lumotlarni olish, qayta ishlash va tahlil qilish usullarini; yer kadastrini va yer tuzishni amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni ta'minlashi;

- yer resurslarining iqtisodiy samaradorligi, intensivlashtirish, qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish haqida tasavvur hosil qilishi;

- yer tuzish loyihalarida yer resurslaridan foydalanilishni iqtisodiy asoslash, bozor, hududiy va ishlab chiqarishning xususiyatlari, ishlab chiqarishni konsentratsiyalash, ixtisoslashtirish va joylashtirishni bilishi va ulardan foydalanishni ta'minlashi;

- davlat yagona kadastrlari tizimi asoslarini, uning tarkibini va yuritishni bilishi;

- yer resurslarini boshqarish usullarini va ularning qo'llanilishini bilishi va ulardan foydalanishni ta'minlashi;

- yer resurslarini huquqiy, ekologik va iqtisodiy muhofaza qilish usullarini va ularning qo'llanilishini bilishi va ulardan foydalanishni ta'minlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash;

amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. 60813100 – Yer kadastr va yer tuzish ta'lim ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5010	167
Tanlov fanlar	1260	42
Malakaviy amaliyot	720	24
Yakuniy davlat attestatsiyasi	210	7

2.3.2. 60813100 – Yer kadastr va yer tuzish ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	5010	167	
1.01	XT1115	Xorijiy til	450	15	1,2,3
1.02	MAT1114	Oliy matematika	420	14	1,2,3
1.03	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.04	TIL1105	O'zbek (rus) tili	150	5	2
1.05	JTS1105	Jismoniy tarbiya va sport	150	5	3
1.06	OYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.07	GEO1110	Geodeziya	300	10	2,3
1.08	FAL2104	Falsafa	120	4	4
1.09	KAR2105	Kartografiya	150	5	4
1.10	DKA2105	Davlat kadastrlari asoslari	150	5	4
1.11	YKY2105	Yer kadastr va yer tuzishda geodezik ishlar	150	5	4
1.12	TD2105	Tuproqshunoslik va dehqonchilik	150	5	5
1.13	AT2105	Axborot texnologiyalari	150	5	5
1.14	YRB2105	Yer resurslarini boshqarish	150	5	5
1.15	YEN 2105	Yer kadastr nazariyasi	300	10	5,6
1.16	GTT2105	Geoaxborot tizimi va texnologiyalari	120	4	6
1.17	YH3110	Yer huquqi	300	10	7,8
1.18	YTA3106	Yer tuzish asoslari	180	6	7
1.19	APK3105	Aholi punkti yerlari kadastr	150	5	8
1.20	YTL3105	Yer tuzishni loyihalash	150	5	8
1.21	YFE3105	Yerdan foydalanish ekologiyasi	150	5	9
1.22	YRFP3105	Yer resurslaridan foydalanishni prognozlash	150	5	9
1.23	QXK3105	Qishloq xo'jalik yerlari kadastr	150	5	9
1.24	YEM4105	Yer monitoringi	150	5	10
1.25	NXK4106	Noqishloq xo'jalik yerlari kadastr	180	6	10
1.26	DYN4105	Davlat yer nazorati	150	5	11
1.27	YKT4105	Yer kadastr va yer tuzish ishlarini avtomatlashgan tizimlari	150	5	10
2.00		Tanlov fanlar	1260	42	
2.00		Tanlov fanlar (12 ta fan)	1260	42	6,7,8,9,10,11
		Jami	6270	209	
		Malakaviy amaliyot	720	24	6,9,12
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	210	7	12
		Jami	930	31	
		HAMMASI	7200	240	

2.4. Kvalifikatsiya: yer kadastr va yer tuzish muhandisi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, yer kadastri, qishloq va noqishloq xo'jalik yerlari kadastri, aholi punkti yerlari kadastri, yer tuzish, yer monitoringi, yer huquqi, geodeziya, kompyuter grafikasi, kartografiya, fotogrammetriya va masofadan zondlash, yer uchastkasi, yer resurslari, yer resurslari iqtisodiyoti, yer tuzishni loyihalash, yer kadastri va yer tuzishni loyihalashning avtomatlashgan tizimlari, landshaftli yer tuzish, axborotlar taxlili, avtomatlashtirilgan tizimlar, xo'jaliklararo yer tuzish, yer resurslaridan foydalanish, yer resurslarini boshqarish, yerdan foydalanish ekologiyasi, yerdan foydalanishni bashoratlash, davlat yer nazorati.